

DINIY QADRIYATLAR HOZIRGI TALABA QIZLAR NIGOHIDA IFODALANISHI

Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti

“O‘zbek tili va adabiyoti, tillar” kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugun bir qo‘lida beshikni, bir qo‘lida dunyoni tebratayotgan onalarning hayotdan shod yuz-ko‘zlariga qarab, zamonaviy ta‘lim-tarbiya maskanlarida voyaga yetayotgan baxtli avlodga qarab, Iffat esa solihalik, itoatlik, bosiqlik, mustahkam aql-idrok, yetuk islomiy tarbiya, sabr-qanoat, go‘zal axloq, iboli hulq va boshqa xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir soliha ona o‘z farzandiga islomiy qadriyat va tarbiyani bera olishi kerak. Chunki, bu fazilatlarining barchasi bebaho boylikdir. Har bir musulima qizlar yetuk ta‘lim-tarbiya olishligi sababli ularning mustahkam oila barpo etishligiga zamindir. Ushbu maqolada Islom diniy qadriyatlarini talaba qizlar o‘rtasida ifodalanishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Islom, din, ta‘limot, tarbiya, axloq, qadriyat, hadis umuminsoniylik, e‘tiqod, ishonch, jamiyat, pedagogika, globallashuv, shariat,

ASOSIY QISM

Islom dini necha-necha asrlar mobaynida odamlarni, bani bashariyatini ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashtirishga, hamjihat bo‘lishga, tinchlik-totuvlikni mustahkamlashga, axloqiy va ma‘rifiy kamolotga, halollik va poklikka, iymon va e‘tiqodga mehnatsevarlik va vatanparvarlikka, ezgulik va saxovatga, bag‘rikenglik va mehr-oqibatlilik, ezgulik maqsadlari yo‘lida qo‘lni-qo‘lga berishga, o‘zaro nizolar, qonli to‘qnashuvlarga, milliy, irqiy, diniy kamsitilishlarga yo‘l qo‘ymaslikka, umumiy uyimiz – kurrai zaminda do‘st-birodarlar, ahil- hamkor bo‘lib yashashga, umuminsoniy madaniyat, ma‘naviyat va ma‘rifat boyliklaridan, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan o‘zaro bahramand bo‘lishga da‘vat etib kelmoqda.

Islom dini ezgu umuminsoniy qadriyatlarni inkor etmaydi. Hatto dinimizga zid bo‘lmagan urf-odatlar shariat manbalaridan biri hisoblanadi. Aslida milliy-diniy qadriyatlarimiz bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Qadriyatlar asrlar davomida xalqimiz tomonidan e‘zozlanib keladi. Ular kelib chiqishiga ko‘ra milliy, umuminsoniy va diniy qadriyatlar bo‘lishi mumkin. O‘zbek xalq milliy tarbiyasi qizlar tarbiyasining boy madaniyati va tajribasiga ega. Qiz bolalar tarbiyasi o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, asosan oilalarda onalar tomonidan, otalar nazoratida olib borilgan. Shahar

va qishloqlarda otin bibilarning qizlarga ta'lim va tarbiya berishga mo'ljallangan maktablari faoliyat ko'rsatgan.

Agar u milliy urf-odat va an'analar shaklida bo'lsa, milliy qadriyat. Agar bir nechta millat va xalqlar e'tirof etgan bo'lsa, umuminsoniy qadriyat. Diniy ta'limotga asoslangan bo'lsa, diniy qadriyat deyiladi. O'zbekona azaliy qadriyatlarimizni milliy yoki diniyga ajratish qiyin. Masalan, salom-alik qilish, ota-ona, qarindosh-urug', yetim-yesirlarga yaxshilik qilish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi odatlar Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarda savobli amallar ekani ta'kidlangan. Bu odatlarga xalqimiz ming yillardan beri qadriyat sifatida amal qilib keladi. Hadisi sharifda shunday deyiladi: **«Kimki kattamizni hurmat qilmasa, kichigimizga rahm-shafqat ko'rsatmasa, olimimizning haqqini bilmasa bizdan emas»**. Payg'ambarimiz alayhissalom zamonlarida islom ta'limoti joriy bo'layotgan vaqtlarda mavjud bezarar milliy urf-odatlar bekor qilinmay saqlanib qolgan.

Albatta, asl qadriyatlarni turli bid'at-xurofotlardan farqlash zarur. Yaqin o'tmishda urfga kirib qolgan isrofgarchilik, dabdababozlik kabi illatlar taraqqiyotga emas, aksincha, zararga xizmat qiladi. Ayni vaqtda o'sib kelayotgan yoshlarni milliy-diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash har bir ota-onaning burchi hisoblanadi.

Shuningdek, insondagi axloqiy fazilatlardan eng muhimi xayri ehson haqida alohida fikr yuritiladi: "Alloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Allohning bandalariga) infoq-ehson qil" ("Qasas" surasi, 77-oyati).

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasini 23-24-oyatlarida ota-onaning bolani dunyoga keltirishi bilan birga, farzandga yaxshi ism qo'yishi, o'z farzandini jismoniy va ma'naviy tomondan yetuk kishi qilib tarbiyalashi, ya'ni ilm-u ma'rifatga o'rgatish va biror bir kasb-hunar egasi qilish, o'g'il bola bo'lsa uylantirish, qiz bola bo'lsa, turmushga chiqarish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berib turishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, mazkur oyatlarda farzandlar zimmasidagi uchta vazifa o'z ifodasini topgan. Birinchisi, farzandlar ota-onalariga yaxshi muomala, shirinsuxan bo'lishlari, ularga mehribon bo'lmoqlari lozim. Ikkinchidan, ota-ona kafolatini yaxshilash, nafaqa berish, ularni so'rashga muhtoj qilmay yoki minnat qilmay izzat-hurmat ko'rsatishdan iboratdir. Uchinchidan, ota-ona o'z farzandlari mol-mulkidan foydalanishga haqlidir va hokazo. Qur'oni Karimda marhamat qilinadi: "Robbing o'zidan boshqa narsalarga ibodat qilmaslikka va ota-onasiga xayr-ehson va yaxshi muomala qilishga buyurdi. Ota-onangizdan biri yoki ikkovlari ulug'lik, keksalik yoshiga yetsalar, ularga "uf" demang, gapiring. Va ota-onangizga rahmat qanoatini yozing hamda "Ey parvardigoro, ota-onam meni yoshligimdan qanday qilib tarbiyalab o'stirgan bo'lsalar, shundayin rahmat qil"

(“Al-Is” surasi, 23-24-oyatlar).

Qur’oni Karimning ma’lum oyatlarida insondagi eng zarur insoniy fazilatlardan sanalgan shirinsuxonlik, to’g’ri so’zlik va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari talqin etiladi: “Kishilarga chiroyli so’zlar so’zlangiz» (“Baqara” surasi 53-oyatiy, «Alloh tomonidan bo’lgan bir marhamat sababli ularga (sahobalaringizga) yumshoq so’zli bo’ldingiz. Agar qo’pol, qattiqqo’l bo’lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo’lar edilar» (“Ol-i Imron” surasi, 159-oyati).

Qur’oni Karimni “Nur” surasining 27-28-oyatlarida yaxshi fazilatli kishilar bilan ham, yomon xislatli kishilar bilan ham muomala-muloqotda bo’lish va salomlashishning o’ziga xos odob-axloq qoidalari berilgan. Shuningdek, “Niso” surasining 86-oyatida esa salomga alik olishga oid qoidalar bo’yicha muhim ko’rsatmalar mavjud: “Qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki (hech bo’lmasa) o’sha iborasni qaytaringlar”.

Qur’oni Karimda insondagi eng zarur xislatlardan sanalgan oliyjanoblik ulug’lanib, baxillik esa lan’atlanadi. Baxillik yo’lini tashlab saxiylikka tomon yuz o’giranlar najot topguvchilar sifatida talqin etiladi: **“Kimki o’z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o’shalar najot topguvchi zotlardir”** (“Xashr” surasi 9-oyati).

Qur’oni Karimda insonni axloqiy kamolotga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, takabburlik, yolg’onchilik, munofiqlik, xiyonatkorlik, xasislik, zulmkorlik, buzuqchilik, o’g’rilik, poraxo’rlik, ichkilikbozlik, zinokorlik, qimorbozlik, giyohvandlik, nohaq qon to’kishlar, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, baxillik, g’iybatchilik, hasadgo’ylik, g’azabnoklik, ochko’zlik va hokazolar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan.

Ma’lumki, manmanlik – aybini tan olmaslik, takabburlik sanaladi. Manmanlik haqida Qur’on Karimni “Isro” surasining 37-oyatida: «Yer yuzida Kibr-Havo bilan yurmagin! Chunki, sen (oyoqlaring bilan) hargiz yerni teshib (uning tubiga) ketolmaysan va bo’yi bastda tog’larga yetolmaysan”, - deyiladi.

Bu to’g’rida payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislaridan birida: **“Kimki o’zini katta olsa, yurishida o’ziga bino qo’ysa, oxiratda Allohning g’azabiga uchraydi”** (821-hadis), deb ogohlantiradi.

Ma’lumki, VIII-IX asrlar Hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to’plam (as-sahih as-sitta) ni yaratgan muhaddislar ham vatandoshlarimiz bo’lib, ilm-u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 (810)-256 (870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj 206 (819)-261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy 209 (824),-279 (892), Imom Abu

Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817)-275 (880), Imom Ahmad an-Nasoniy 215 (830)-303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824)-273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar «al-kutub as-sitta» (olti kitob) ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan «As-Sahih».
2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al-Hajjoj) tomonidan yozilgan «As-Sahih».
3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan «Sunnai».
4. Imom Abu Dovud Sulaymon-Sijistoniy tomonidan yozilgan «Sunnai».
5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan «Aj-jami al-Kabir».
6. Ahmad an-Nasoiy tomonidan yozilgan «Sunnai» kabi to'plamlardir.
7. Imom al-Buxoriyning shoh asari «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam») 4 jildan iborat bo'lib, unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng «sahih» hadislar kiritilgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom ta'limoti mujassamlashgan Qur'oni Karimdagi «Biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu-ro'z berdik va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo'ydik»; «Ey mo'minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz – pokiza narsalardan yenglar», **kabi muhim g'oyalar; shuningdek, Hadisi Sharifdagi** «Ilm egallang! Ilm-sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir»; «Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir»; «Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz», «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir»; «Yolg'on so'zlama», «O'zinga ravo ko'rganni boshqalarga ham ravo ko'r», «Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o'tmanglar», «Axmoqdan uzoqlashing», «Nonni e'zozlanglar»; **deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.**

Ta'kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg'oniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom ta'limotini, Qur'oni Karimni, payg'ambarimizning aytgan so'zlari, diniy va axloqiy yo'l-yo'riqlari, hikmatlaridan iborat manba – Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta'sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiiy-ilmiiy, ijtimoiy-

falsafiy va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi, shuningdek, asarlarining mazmun-mohiyati va g'oyasi ham Qur'oni Karim va Hadisi Sharif ta'limotiga asoslanadi. Chunki, biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o'rgatish Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni o'rganish va ulardagi ko'rsatmalarni o'zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko'ra, Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta'sir etgan va islom ta'limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bular da ilgari surilgan g'oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shunday qilib, biz islom ta'limotida, ta'lim-tarbiya masalalarining tutgan o'rnini tahlil etar ekanmiz, bu davr ma'naviy-ma'rifiy tafakkurining xarakterli tomoni shundaki, ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta'limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko'rinishi sifatida o'z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkirlarimiz asarlarida keng o'rin egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. N. Atayeva va boshqalar. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. I kitob. Toshkent. 2012.
2. Alouddin Mansur. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1992.
3. Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Iymon. - T.: «Kamalak», 1991.
4. Hadis. Al-Jome as-sahih (Ishonarli to'plam). I, II, III, IV jild. Qomuslar Bosh tahririyati; -T.: 1991-1996.